



TALABALARNI SHAXS SIFATIDA RIVOJLANTIRISHDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING AHAMIYATI

Boliyev Uchqun Ismatovich

Omanqulova Shohida Nematillo qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

“Musiq ta’limi” kafedrası dotsentlari

uchqunboliyev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19439524>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-aprel 2026 yil

Ma’qullandi: 04-aprel 2026 yil

Nashr qilindi: 06-aprel 2026 yil

KEYWORDS

talaba shaxsi, ma’naviyat, axloq, tarbiya jarayoni, pedagogik talablar, irsiyat, muhit, ta’lim-tarbiya, shaxs faolligi.

ABSTRACT

Pedagogik oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarni shaxs sifatida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo’nalishlaridan biridir. Zero, bugungi globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida oliy ta’lim tashkilotlari talabalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash jarayoni aniq talablar, mezonlar va pedagogik yondashuvlarga asoslanishi zarur. Mazkur maqolada ularning har biri mazmunan keng yotilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni 3-moddasida “tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayondir” [1] deb keltirilgan. Shunga ko‘ra, pedagogik oliy ta’lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni ushbu qonuniy me’yorlar va konseptual yondashuvlar doirasida amalga oshirishi zarur bo‘lib, bu talabalarni nafaqat intellektual rivojlanish, balki ma’naviy – axloqiy yetuklik asosida tarbiyalashga imkon yaratadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti inson omili, ayniqsa yosh avlodning intellektual salohiyati bilan bir qatorda uning ma’naviy-axloqiy yetukligiga ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida talabalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, talabalarning shaxsiy rivojlanishida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘rni beqiyos bo‘lib, u ularning ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy qarashlari va hayotiy qadriyatlarini belgilaydi. Bugungi kunda axborot oqimining keskin ortishi, turli madaniy ta’sirlarning kuchayishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi yoshlarning ongiga turlicha ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda talabalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish, ularda mustahkam hayotiy prinsiplar va qadriyatlarni shakllantirish pedagogik jarayonning ustuvor yo’nalishiga aylanmoqda. Ma’naviy-axloqiy tarbiya talabaning nafaqat ichki dunyosini boyitadi, balki uning jamiyatdagi o‘rnini anglashiga, ijtimoiy mas’uliyatni his etishiga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu jarayon talabaning mustaqil fikrlash, ongli qaror qabul qilish, o‘z xatti-harakatlarini baholay olish kabi muhim sifatlarini rivojlantiradi.

Asosiy qism. Talabalarni shaxs sifatida rivojlantirish jarayoni ko'p qirrali va murakkab pedagogik hodisa bo'lib, u biologik, ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi. Ushbu jarayonda ma'naviy-axloqiy tarbiya yetakchi o'rin egallaydi, chunki aynan shu omil orqali talabaning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy xulq-atvori va shaxsiy pozitsiyasi shakllanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya talabalarda insonparvarlik, vatanparvarlik, halollik, mas'uliyat, bag'rikenglik kabi muhim fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu fazilatlar esa o'z navbatida talabaning jamiyatda faol ishtirok etishini, ijtimoiy munosabatlarda ongli va mas'uliyatli bo'lishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, ma'naviy-axloqiy tarbiya nafaqat shaxsiy rivojlanish omili, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etilishi zarur. Bu jarayonda o'quv mashg'ulotlari bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ijtimoiy loyihalar, jamoat ishlari va volontyorlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, talabaning amaliy faoliyatga jalb etilishi uning nazariy bilimlarini hayotiy tajriba bilan boyitadi va ma'naviy qadriyatlarning mustahkam shakllanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samaradorligi pedagogik yondashuvlarga ham bevosita bog'liqdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, talabalarining individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Bu esa talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy muhit – oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlik ham talabaning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Sog'lom ijtimoiy muhit talabaning ijobiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qilsa, aksincha muhit esa uning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yana bir muhim jihat shundaki, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni talabaning ichki ehtiyojiga aylanishi lozim. Ya'ni talaba o'z-o'zini tarbiyalash, o'z ustida ishlash, o'z xatti-harakatlarini baholash va takomillashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Bu esa uning shaxs sifatida mustaqil va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, talabalarni shaxs sifatida rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy tarbiya uzluksiz, tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonning samaradorligi esa pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim muhiti va talabaning shaxsiy faolligiga bevosita bog'liqdir.

Ma'naviyat – insonning ichki dunyosini ifodalovchi tushuncha bo'lib, u axloqiy qarashlari, qadriyatlari, e'tiqodi, madaniyati, dunyoqarashi va ruhiy kamolotini o'zida mujassam etadi. Sodda qilib aytganda, ma'naviyat insonning yaxshini yomonidan ajrata bilishi, jamiyatda munosib o'zini tutishi, boshqalarga hurmat bilan qarashi va hayotga ongli yondashuvi hisoblanadi. Axloq esa insonning oilaga, jamiyatga va boshqalarga bo'lgan munosabatlarini, xulq-atvorini, odoblarini o'zida aks ettiradi [6].

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash quyidagi pedagogik talablarga tayanishi zarur:

1. **Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv:** Talaba tarbiya jarayonida faol subyekt sifatida qaralib, uning fikri, ehtiyoji va qiziqishlari inobatga olinishi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlantirilishi lozim. Bunda talabaning individual psixologik va yosh xususiyatlari hisobga olinadi.

2. **Tizimlilik va uzluksizlik:** Tarbiya jarayoni tasodifiy emas, balki o'zaro bog'liq va maqsadli faoliyatlar tizimi sifatida tashkil etilishi kerak. Ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, jamoatchilik ishlari va mustaqil ta'lim uyg'unligi muhimdir.

3. **Qadriyatlarga tayanish:** Tarbiya jarayonida milliy meros, urf-odat va an'analar bilan bir qatorda inson huquqlari, adolat, erkinlik kabi umuminsoniy qadriyatlarga suyanish zarur.

4. **Ijtimoiy muhit ta'siri:** Talaba shaxsi oliy ta'lim muassasasi, oila va jamoatchilik bilan hamkorlikda shakllanadi, shu bois sog'lom muhitdan samarali foydalanish talab etiladi.

5. **Pedagog namunaliligi:** Tarbiya samaradorligi pedagogning shaxsiy fazilatlarini va axloqiy qiyofasiga bog'liq bo'lib, bu borada Husayn Voiz Koshifiy muomala madaniyatining ahamiyatini ta'kidlaydi [4; 58-b.].

6. **Tanqidiy fikrlash:** Talabalarda axborotni tahlil qilish, saralash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

7. **O'z-o'zini tarbiyalash:** Tarbiya ichki ehtiyojga aylanishi, talaba esa o'z ustida ishlash va maqsad sari intilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Ushbu talablarning izchil amalga oshirilishi ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol va mas'uliyatli shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda, shaxs tushunchasiga aniqlik kiritish muhim: "Shaxs – muayyan ijtimoiy guruhga mansub, ongli faoliyat yurituvchi va o'ziga xos individual psixologik xususiyatlarga ega insondir" [3; 39-b.].

Xalqimizning tarixiy xotirasi buyuk siymolar nomi bilan boy: Beruniy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Ulug'bek, Navoiy va boshqa allomalar nafaqat ma'naviyat egasi bo'lish bilan, balki murakkab hayot yo'lini bosib o'tgan. Ularning hayoti shuni ko'rsatadiki, haqiqiy ma'naviy kamolot ilm, halollik, sabr-toqat, fidoyilik va jamiyat oldidagi mas'uliyat bilan bog'liq. Shu sababli, talabalarni tarbiyalashda buyuk ajdodlar merosidan ibrat olish muhim pedagogik talabdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yana bir muhim jihati – talabaning o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini shakllantirishdir. Ma'naviyat tashqi ta'sir orqali emas, balki ichki ongli mehnat orqali rivojlanadi. Talaba o'z xatti-harakatlarini baholay olishi, qarorlarini vijdoniy mezonlarga tayangan holda qabul qilishi, o'z ustida muntazam ishlashi zarur. Shu orqali ma'naviy o'sish ongli jarayonga aylantiriladi.

Ibn Sino insonning haqiqiy kamolotga erishishida axloqiy yetuklik muhimligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, axloq fani insonning o'ziga va boshqalarga nisbatan xatti-harakatlarini tartibga soladi. U ijobiy axloqiy sifatlar qatoriga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, mehr-muhabbat, mo'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intiluvchanlik, uyatchanlik va ijrochilikni kiritadi. Axloqiy fazilatlarini rivojlantirish ongli mehnat orqali amalga oshiriladi va ular inson kamolotining poydevoridir [5; 80-82-b.].

Shaxs shakllanishiga to'rtta asosiy omil – irsiyat, muhit, tarbiya va shaxsning o'z faolligi ta'sir qiladi. Talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonini samarali tashkil etishda aynan shu omillarning o'zaro birligini hisobga olish pedagogik jihatdan muhimdir.

Irsiyat insonning biologik xususiyatlari, nasliy belgilar, ota-onaga o'xshash va farqli jihatlarni belgilaydi [2; 22-b.]. Tarixiy nuqtai nazarga ko'ra, ba'zi mutafakkirlar shaxs shakllanishida irsiyatni hal qiluvchi omil sifatida hisoblagan. Natijada pedagogikada biologizatorlik yo'nalishi paydo bo'lib, insonning barcha xususiyatlari genetik dastur asosida belgilangan degan qarash ilgari surilgan. Biroq zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, biologik xususiyatlar muhim bo'lsa-da, shaxsning ma'naviy-

axloqiy rivojlanishi asosan ijtimoiy tajriba, ta'lim-tarbiya va shaxsning ongli faoliyati orqali shakllanadi.

Muhit – inson yashayotgan tabiiy va ijtimoiy sharoitlar majmuasi bo'lib, talabanning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va qadriyatlariga bevosita ta'sir qiladi. Muhitning asosiy tarkibiy qismi – oila bo'lib, dastlabki axloqiy me'yorlar, hurmat va mas'uliyat tuyg'usi shu yerda shakllanadi. Shuningdek, oliy ta'limdagi guruh jamoasi ham ijtimoiylashuv muhiti sifatida talabanning shaxsiy va axloqiy kamolotiga hissa qo'shadi.

Tarbiya va shaxsning faolligi ma'naviy-axloqiy shakllanishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Talaba o'z ustida ishlash, axloqiy tanlovlarni ongli amalga oshirish, ijtimoiy tajribani tahlil qilish orqali yetuk shaxsga aylanishi mumkin. Faollik esa talabanning o'qish, ijtimoiy ishlarda ishtirok etish va pedagogik munosabatlarda o'zini namoyon etishi bilan bog'liq. Shaxsning faolligi uning kasbiy malaka va xulq-atvorini rivojlantirishda, ijtimoiy muhitni o'rganish va unga faol hissa qo'shishda muhim rol o'ynaydi [2; 25-b.].

Ijtimoiy muhit va ma'naviy-axloqiy tarbiya bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar hisoblanadi. Muhitning o'zgarishi tarbiyaga, tarbiya esa muhitga ta'sir qiladi. Talabalar esa bu jarayonlarning nafaqat iste'molchisi, balki yaratuvchisi sifatida shaxsiy va kasbiy shakllanish jarayonida faol ishtirok etadi. Shu sababli oliy ta'lim muassasasidagi ijtimoiy-madaniy muhit va ma'naviy-axloqiy tarbiya talabanning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Xulosa: Talabalarni shaxs sifatida rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy tarbiya muhim va ajralmas pedagogik omil hisoblanadi. U talabanning nafaqat ichki dunyosini boyitadi, balki uning ijtimoiy hayotdagi o'rni, fuqarolik pozitsiyasi va axloqiy qarashlarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni tizimli, uzluksiz va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etilgandagina samarali natija beradi. Bu jarayonda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, ijtimoiy muhit bilan uyg'unlik hamda talabanning shaxsiy faolligini rivojlantirish muhim pedagogik shartlar sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, o'z-o'zini tarbiyalash va mas'uliyat hissini shakllantirish ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy natijalaridan biri hisoblanadi. Bu esa ularning kelajakda nafaqat malakali mutaxassis, balki jamiyatda faol, ongli va ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Xalq so'zi. – T.:, 2020. – 24 sentabr. – B.1-2. <https://lex.uz/docs/5013007>
- 2.Asqarova O'.M, Xayitboyev M, Nishonov M.S. Pedagogika: darslik. - T.: "Talqin", 2008 - 288 b.
- 3.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006. - 160 b.
- 4.Husayn Voiz Koshifiy. Futuwatnomai Sultoniy. N.Kornilov taijimas. T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994, 58-b
- 5.Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi (darslik). –T.: "Fan va texnologiyalar", 2008. -288 b.
- 6.Mavlonova R .A va mualliflar jamoasi. Umumiy pedagogika. - T .: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2018, 528 bet.